



17.08.2022 даги

"Озод Малика йул курилиш" МЧЖ ва Сирдарё туман ирригация бўлими ўртасида 325 000 000 ,00 сўм умумий
суммага тузилган 42-9-129-IV-son шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 170
Шахсий газна ҳисобварақ 100022860242317042402170002

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	4233900			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август	325 000 000,00			325 000 000,00
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	325 000 000,00			325 000 000,00

Жами 325 000 000,00 сўм

Уч юз йигирма беш миллион сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 0,00 сўм ёки 0,00%*** шартноманинг умумий суммасидан
_____ % ***20 _____ ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада
тақдим этилади;


(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига _____ % жорий ойнинг _____ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим
(ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш,
алоқа хизматлари ва конун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш
шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



М.Ў.


(имзо)

Мамадалиев Каримжон Маматович
Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери


(имзо)

Куйбаков Улугбек Хасанович
Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

_____ (имзо)

Буюртмачи ходими
қабул қилди

_____ (имзо)

« ___ » _____ 20__ й.

« ___ » _____ 20__ й.

Keyingi o'rinlarda **"Buyurtmachi"** deb yuritiladigan "Sirdaryo tuman irrigatsiya bo'limi" nomidan Nizomi asosida ish ko'ruvchi boshliq K.Mamadaliyev bir tomondan, matnda keyingi o'rinlarda **"Pudratchi"** deb yuritiladigan «Ozod malika yo'l qurilish» MCHJ Nizomi asosida ish ko'ruvchi raxbari N.Boydadayeva ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani tuzdilar.

17.08.2022 yil

42-9-129-IB/2022-son

I. SHARTNOMANING MAQSADI

1.1. **"Pudratchi"** ushbu shartnoma shartlariga muvofiq "Sirdaryo viloyat sirdaryo tumandagi sug'orish tarmoqlarini tozalash va inshootlar"ni joriy tamirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi. **"Buyurtmachi"** esa **"Pudratchi"**ga bajarilishi lozim bo'lgan ishlar uchun tegishli me'yoriy xujjatlar va tashkilot normativlari asosida tuzilgan loyixa-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'ni to'lovini amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. SHARTNOMANING BAHOSI VA XISOB KITOB TARTIBI

2.1. 2022 yil 14 avgust kungi tanlovda (LOT raqami № 22110012132286) g'olib bo'lib bajarilishi lozim bo'lgan ishlar qiymati (QQS va barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda)ga asosan joriy narxlarda **325 000 000 (uch yuz yigirma besh million)** so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, manzillik ro'yxati tasdiqlanib moliyalashtiriladigan mablag' aniqlangandan so'ng tegishli G'aznachilik tizimidan (Uzazbo dasturi) ro'yhatdan o'tib, mablag' Respublika yoki maxalliy budjetdan **"Buyurtmachi"** maxsus xisobiga tushirilganidan so'ng, 10 bank ish kunida **"Buyurtmachi"** tomonidan bajariladigan ishlar qiymatining avans (bo'nak) tariqasida 30 % kelishilgan summa **"Pudratchi"**ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. Mablag'ning qolgan qismi Respublika yoki maxalliy budjetdan **"Buyurtmachi"** maxsus xisobiga tushirilganidan so'ng, **"Pudratchi"** tomonidan topshirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.4. **"Pudratchi"** tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar 2022 yilning 17 noyabr kuniga kadar **"Buyurtmachi"**ga topshirilishi shart xisoblanadi. Kursatilgan muddatda **"Pudratchi"** tomonidan bajarilgan ishlar topshirilishi ta'minlanmagan takdirda, bajarilgan ishlar yuzasidan **"Buyurtmachi"** tomonidan moliyalashtirilish masalasi kayta kurib chikiladi.

2.5. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar **"Buyurtmachi"** tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi

III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

"Pudratchi"ning majburiyatlari:

3.1. Mazkur shartnomada ilova qilinadigan bajariladigan ishlar jadvaliga asosan birinchi avans to'lovi tushgandan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi va mazkur shartnomaning ishlarni bajarish to'g'risidagi 1-ilovasida ko'rsatilgan jadval asosida belgilangan oylarda ishlarni ko'rsatilgan muddatlarda bajarib topshiradi.

3.2. Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda bajarish hamda **"Buyurtmachi"**ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

Ob'ektning ijro xujjatlarini to'liq rasmiylashtirish va buyurtmachiga topshirish, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikatini, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarining texnik pasportini va xisob varaq fakturalar (yuk xati)dan nusxa taqdim etadi.

3.3. **"Pudratchi"** mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va yordamchi pudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun **"Buyurtmachi"** oldida to'liq mulkiy javob beradi. **"Pudratchi"** **"Buyurtmachi"** oldida yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlarini uchun xam javobgar bo'ladi. **"Buyurtmachi"** **"Pudratchi"** bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog'liq talablarni yordamchi pudratchilarga qo'ymaydi.

3.4. **"Pudratchi"** geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'liq o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, **"Pudratchi"** tegishli tuzatishlarni o'z xisobidan amalga oshiradi.

3.5. Agar berkitilgan (yopilib ketadigan) ishlar **"Buyurtmachi"**ning tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha **"Pudratchi"** **"Buyurtmachi"**ning ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra uni tiklashga majburdir.

3.6. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha **"Pudratchi"** qurilish montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftari (jurnal)ni yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi aks ettiriladi. **"Pudratchi"** daftar (jurnal)da **"Buyurtmachi"** tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.7. Ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishiga **"Pudratchi"** to'liq javobgar bo'ladi.

"Pudratchi"ning huquqlari:

3.8. Bajarib beriladigan ish uchun olinadigan avans haq to'lanishini mazkur shartnomaning 2.2-bandiga ko'ra, ishni bajarib topshirgandan so'ng, mazkur shartnomaning 2.3-bandiga ko'ra to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish.

Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplanishini talab qilish.

3.8. Loyixa-smeta xujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish xajmlari **"Pudratchi"** tomonidan to'liq va sifatli bajarilib, ayrim ish xajmlari va xarajatlari smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajatlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish xajmlari xarajatlarini qoplash uchun ob'ektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi xujjatlar asosida **"Buyurtmachi"**ni xabardor qilgan xolda yo'naltirilishi mumkin.

3.8. **"Pudratchi"** zarur hollarda ayrim ish turlarini bajarilishida loyixa-smeta xujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniga, o'z imkoniyatlardan kelib chiqqan xolda, o'rindosh mashina-mexanizmlardan foydalanishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoriyasi va loyixachi tashkilotning tegishli xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

3.9. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish xajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish xajmlari tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan xolda rasmiylashtiriladi.

"Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

3.10. Tasdiqlangan loyixa-smeta xujjatlari asosida bajarilgan ishlarni me'yoriy xujjatlar talablari darajasida qabul qilib olish.

3.11. Bajarilgan ishlar uchun xaq to'lanishi mazkur shartnomaning 2.2-bandiga ko'ra, ishni bajarib topshirgandan so'ng, mazkur shartnomaning 2.3-bandiga ko'ra to'la xajmda xisob kitob qilinadi.

"Buyurtmachi"ning huquqlari:

3.12. **"Pudratchi"**dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish.

3.13. Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish.

3.14. **"Pudratchi"**dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarini loyiha xujjatlari asosida ishni sifatli bajargan holda qabul qilib olish.

3.15. **"Pudratchi"** tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni ish xujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish.

3.16. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.

3.17. Agar **"Pudratchi"** shartnomani amal qilish muddati davomida belgilangan ob'ektning **"Buyurtmachi"** ga topshirmagan taqdirda, **"Buyurtmachi"** mazkur shartnoma muddatlari tugagandan so'ng, bajarilgan ishlar uchun mablag' berish majburiyatini olmaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi.

4.2. "Pudratchi" ob'ektni o'z vaktida topshirmaganligi uchun "Buyurtmachi"ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5 %i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyaning summasi to'lab berilgan mablag'ning 50 %idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan kamchilik va nuqsonlar "Pudratchi" tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa, yoki ishlar umuman bajarilmasi, "Buyurtmachi" to'lovlarni to'htatib, lozim darajada, yoki umuman bajarilmagan ishlarning 20 % i miqdorida jarima undirilishini talab qilish huquqiga ega.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarining umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 % miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tomon ikkinchi tomonga ana shu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida yetkazgan zararlarni qoplash javobgarligidan ozod etilmaydi.

4.6. Ushbu shartnomada qo'zda tutilmagan javobgarliklar O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 25-32 moddlari asosida belgilanadi.

V. YENGI BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlarda shartnomani bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

5.2 "Pudratchi" ning mazkur shartnomani bajarishi uchun boshqa shartlashuvchi sheriklari, yordamchi pudratchilar tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, "Pudratchi" da zarur mablag'larning bo'lmaganligi fors-major xolatlariga kirmaydi.

VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Shartnoma asosida belgilangan mablag'ni moliyalashtirilishi bilan bog'liq muammolar kelib chiqqan taqdirda "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'zaro kelishuv asosida shartnomaga o'zgartirish kiritishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilinadi.

6.3. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa, Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Guliston tumanlararo Iqtisodiy sudi orqali xal etiladi.

VII. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik tizimidan (Uzazbo dasturi) ro'yhatdan o'tgan kundan kuchga kirib, 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.

7.2. Ob'ektning joriy ta'mirlash bo'yicha mablag' Respublika yoki maxalliy budjetdan "Buyurtmachi" ning maxsus xisob raqamiga 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar ajratilmagan taqdirda mazkur shartnomaning amal qilish muddati qayta ko'rib chiqiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nus'hasi ham huquqiy jihatdan teng kuchga ega.

VIII. TOMONLARNING REKVIZITLARI

“BUYURTMACHi”

Sirdaryo tuman Irrigatsiya bo'limi

Guliston ko'chasi 101 uy

x/r 100022860242317042402170002

INN 305085967

Markaziy bank

MFO 00014

Sirdaryo TIB Boshligi



“PUDRATCHi”

Ozod Malika Yo'l Qurilish MCHJ

Sayxunobod tumani Paxtakon MFY

X/r 20208000900386244001

INN 303028705

MFO 01118

ATB Xamkor bank

Ozod Malika Yo'l Qurilish MCHJ

raxbari



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.



Imzolovchi F.I.SH.	KARIMJON MAMADALIYEV MAMATOVICH
Imzolangan sana	17 ABT 2022 12:30
Hujjat kodi	DV1156833254
Hulosa kodi	SS3286613616

Sirdaryo tuman Irrigatsiya bo'limi va Ozod Malika Yo'l Qurilish MCHJ o'rtasidagi **325 000 000 (uch yuz yigirma besh million)** (QQSni hisobga olgan holda) so'mlik mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida huquqiy ekspertiza qilib, ushbu shartnomada ko'rsatilgan munosabatlar yuqoridagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi, taraflarning huquq va majburiyatlari, hisob-kitob tartibi, fors-major tartibi, taraflarning mulkiy javobgarligi, nizolarnihal etish tartibi talablariga muvofiqligini bildiraman. 17.09.2022

bosh yuriskonsult:



R.Xolmuratov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сирдарё вилояти

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko'chasi, 7-uy, Tel. +998 67
226-06-61, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Gaimov Bo'riboy Xolbayevich

Sana: 22-07-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 52369

Obyekt nomi «Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash va inshootlarni ta'mirlash» loyiha smeta xujjatlari»

Buyurtmachi - Sirdaryo tuman irrigasiya bulimi

Bosh loyihachi - "Shaffof Hidro designed" MCHJ

Litsenziya AL-002088 ot 11.03.2022

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi - tender (tanlov) asosida

Qurilish turi Joriy ta'mirlash

Murojaat raqami: № 48384

1. Loyihalash uchun asos

Loyixa topshiriqnomasi,

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyixa topshiriqnomasi, Tushuntirish xati. POS. Loyixa smeta xujjatlari. Chizmalar

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

«Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash va inshootlarni ta'mirlash» loyiha smeta xujjatlari quyidagi ishlar ko'zda tutilgan. «O'ng tarmoq» irrigasiya tizimi kanalini 8,034 km uzunlikda mexanizm bilan tozalash. Secheniya ochish- 153 m³. Nasip-1674m³. Monolit beton -278.3 m³.

Suv to'sish inshooti PS-100-100 podyomnik 0.5V montaj qilish-2 dona..Suv o'lchash inshooti 2 dona gidrometrik reyka o'rnatish. Beton 11m³.

P-22 kanalini 5.0 km uzunlikda mexanizm bilan tozalash. - 121,53 m³. Monolit beton -30,2 m³. Suv to'sish inshooti PS-100-100 podyomnik 0.5V montaj qilish.

Suv o'lchash inshooti PK 14+71 da 2 dona gidrometrik reyka o'rnatish. Beton ishlari 12,87m³.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyixa topshiriqnomasi,

6. Ekspertiza natijalari.

Joriy narxlardagi resurs smetasida quyidagilar hisobga olingan: Ishchilarning bir soat uchun o'rtacha ish haqi, normativ mehnat sarfini 1 kishi-soat ko'rsatkichining joriy narxiga ijtimoiy sug'urta to'lovlari (12%) bilan qo'shib hisoblanganda asosiy ish haqi uchun xarajat qiymati - 18280,25 soat/so'm belgilangan. Qurilish materiallari va mahsulotlari, konstruksiyalarning smetadagi narxlari O'zbekiston Respublikasi qurilish sanoatidagi qabul qilingshan moddiy-texnik resurslarining joriy narxlari katalogiga muvofiq qabul qilingan (1-chorak 2022 yil) , hamda joriy bozor narxlari asosida olingan. Transport xarajatlari miqdori - 5 %. Ekspertiza ko'rigiga qadar ob'ektning joriy ta'mirlash ishlarining loyiha tashkiloti tomonidan nuqsonli dalolatnomaga asosan tayyorlangan smeta hujjatlari. Umumiy qiymati 15% QQS bilan - 391 656 729 so'm taqdim etilgan.

Ekspertiza jarayonida buyurtmachi tomonidan smeta hujjatlari qaytadan 331 852 379 so'm taqdim etildi. Shundan mashina mexanizmlar harajatidan 3 391 298 so'm kamaytirildi/avtosamosval 20 tn-314 224 so'm/.Obyektni sug'urtalash harajatlari joriy ta'mirlash ishlarida ko'zda tutilmagan-smetadan chiqariladi.Natijada umumiy summadan 5 632 062 so'm kamayadi.5971 LRV smetasidan poz.2 olib tashlansin/Hatolik/.

Smeta hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori, ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash va inshootlarni ta'mirlash" loyiha smeta xujjatlari

cheklangan miqdori 15% QQS bilan cheklangan qiymat 326 220 317 so'm belgilanadi.

Shundan : Qurilish montaj ishlari QQS bilan - 326 220,317 ming so'm.

Qurilish montaj ishlari QQS siz - 283 669,841 ming so'm.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.04.2021 yildagi 684-sonli Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda, hamda SHNK 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan joriy ta'mirlash ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

Bosh mutaxassis: Toshbayev O'ktamjon Abdurayimovich

Сирдарё туманидаги сугориш тармоқларини тозалаш ва иншоотларни таъмирлаш объектида
2022 йилда олиб бориладиган қурилиш монтаж ишларининг

МОЛИЯЛАШТИРИШ ГРАФИГИ

т/р	Молиялаштириш турлари	2022 йил	Молиялаштириш ойлари 2022 йил															
			I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII				
1	Шартнома бахосининг 30% микдорда аванс	97 500 000																
2	Берилган авансни қайтарилган ҳолда бажарилган ишларнинг 70% микдорда молиялаштириш	227 500 000																
	ЖАМИ:	325 000 000																



"БУЮРТМАЧИ"

Сирдарё ТИБ бошлиги *А. Саидов* К. Мамадалиев

"ПУДРАТЧИ"

Озод Малика йул қурилиш
МЧЖ рахбари



Н. Бойдадаева

Сирдарё туманидаги сугориш тармоқларини тозалаш ва иншоотларни таъмирлаш объектларида
2022 йилда олиб бориладиган қурилиш монтаж ишларининг

ИШ БАЖАРИШ ГРАФИГИ

т/р	Иш турлари	Улчов бирлиги	Умумий иш хажми ва киймати	Қурилиш ойлари 2022 йил																
				I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII					
				1	Сирдарё туманидаги сугориш тармоқларини тозалаш ва иншоотларни жорий таъмирлаш ишлари	км	13,034									10	3,034			
	ЖАМИ:	сум	282 608 696										201 304 348	81 304 348						
	ККС 15%		42 391 304										201 304 348	81 304 348						
	ХАММАСИ		325 000 000										32 257 089	10 134 215						
													233 561 437	91 438 563						

Сирдарё ТИБ бошқаруви


К.Мамадалиев

"ПУДРАТЧИ"

Озод Малика йул қурилиш
 МЧЖ рахбари



Н.Бойдадаева



ТАСДИҚЛАЙМАН”

Сирдарё туман ирригация бўлими бошлиғи
К.Мамадалиев
2022й

ТАНЛАШ БАЁННОМАСИ № 1

17.08.2022 й.
Қатнашди:

Хайъат раиси:

К.Мамадалиев

Сирдарё ш.
Сирдарё ТИБ бошлиғи

Аъзолари:

Б.Худойкулов
Б.Исаев
У.Куйбаков
С.Жапаров
М.Алимов
Ж.Мукумов

Бош Гидротехник
Мухандис гидротехник
Бош ҳисобчи
ФТТЭБ мухандиси
Техник гидрометр
Бошлик уринбосари

Кун тартиби

Котиб:

1. «Аброр мелорация тизими» МЧЖ
2. «Озод Малика йўл қурулиш» МЧЖ
3. «Мироб қурилиш сервис» ХК

Кун тартибида куйидаги масала юзасидан хайъат раиси К.Мамадалиев сўзга чикиб катнашчиларга Ўзбекистон Республикасининг 2021йил 22-апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684-сонли қонуннинг 7-боб 60-модданинг талабларига мувофиқ Сирдарё туман ирригация бўлими “Сирдарё вилоят Сирдарё туманидаги сугориш тармоқларини тозалаш ва иншоотларни таъмирлаш” лойиҳа смета ҳужжатларида

“Унг тармок” ирригация тизими каналини 8,034 км узунликда механизм билан тозалаш, сечения очиш – 153м3, Насип-1674 м3, Монолит бетон 11м3, Сув тусиш иншооти PS-100-100 подёмник 0,5V монтаж қилиш, 2 дона Сув улчаш иншооти, 2 дона гидрометр рейка унатиш, Бетон 11м3 ва

П-22 каналини 5,0 км узунликда механизм билан тозалаш 121,53 м3, монолит бетон 30,2 м3, Сув тусиш иншооти PS-100-100 подёмник 0,5 V монтаж қилиш, Сув улчаш иншооти РК 14+71 да 2 дона гидрометр рейка урнатиш, бетон ишлари 12,87 м3

жорий таъмирлаш учун «Озод Малика йўл қурилиш» МЧЖ, «Мироб қурилиш Сервис» ХК, «Аброр мелорация тизими» МЧЖлардан таклифлар Электрон тендерда катнашаётганлигини маълум қилди.

Танлов 5 иш кунда қўриб чиқилиб Хайъат аъзолари электрон равишда келиб тушган куйидаги таклифлар берилганлиги маълум қилди.

№	Ташкилот номи	Балл
1	Аброр мелорация тизими	85
2	Озод Малика йўл қурилиш МЧЖ	98
3	Мироб Қурилиш Сервис МЧЖ	94

Хайъат раиси К.Мамадалиев ушбу кўрсатилган таклиф хайъат аъзоларига таништирди. Овозга қўйиш натижасида Сирдарё туман ирригация бўлими «Унг тармок» ва «П-22» каналларини жорий таъмирлаш «Озод Малика йўл қурилиш» МЧЖ ниңг таклифи қулай бўлганлиги сасабли, шу ташкилот билан 325 000 000 (уч юз йигирма беш миллион) сўмга шартнома тузишга қарор қилинди.

Харид комиссияси аъзоларида мазкур лот(лар) иштирокчилари билан аффилиланганлик хусусиятига эга алоқалар мавжуд эмас.

Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуннинг (ЎРК-684-сон, 22.04.2021й) 23-моддасига Қўра иштирокчи ва аффилиланган шахс мазкур лот(лар) иштирок этмаяпти.

Ушбу № 22110012132286-сонли лот раками бўйича Сайхунобод туман ирригация бўлими томонидан тасдиқланган танлаш баённомаси юзасидан ҳеч қандай эътироз ёки норозилик юзага келмади. Овозга қўйиш натижасида 5 та овоз билан «Озод Малика йўл қурилиш» голиб бўлди. Юқоридагиларни инobatга олган холда хайъат

ҚАРОР ҚИЛАДИ

«Мироб Қурилиш Сервис» МЧЖ, «Аброр мелорация тизими», «Мироб қурилиш сервис» ХК ташкилотларидан келиб тушган таклифлар эътиборга олинсин.

Танлов голиби этиб «Озод Малика йўл қурилиш» эълон қилинсин ва ушбу ташкилот билан 325 000 000 (уч юз йигирма беш миллион) сўмга шартнома тузилиши мақуллисин.

Аъзолари:

Б.Худойкулов
У.Куйбаков
С.Жапаров
Б.Исаев
М.Алимов
Ж.Мукумов

Бош гидротехник
Бош ҳисобчи
ФТТЭБ мухандиси
Мухандис гидротехник
Техник гидротехник
Бошлик уринбосари

Котиб:

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 132286 на приобретение Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash va inshootlarni ta'mirlash

Способ проведения электронный

Дата 11.08.2022

Время рассмотрения 11.08.2022 20:36

Конкурсная комиссия Сирдаре туман ирригация булими, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	KUYBAKOV ULUG'BEK XASANOVICH	Председатель комиссии	Сирдарё тумани ирригация бўлими
Секретарь комиссии	MUKUMOV JASUR DJURAYEVICH	Секретарь комиссии	Сирдарё тумани ирригация бўлими
Член комиссии	JAPAROV SAVRONBEK BAXTIYOR O'G'LI	член комиссии	Сирдаре туман ирригация булими
Член комиссии	XUDAYKULOV BATIR SULTANOVICH	член комиссии	Сирдарё тумани ирригация бўлими
Член комиссии	ALIMOV MURODJON NORMUROT O'G'LI	член комиссии	Сирдар тумани ирригация бўлими
Член комиссии	ISAYEV BEKZOD BAXRIMURATOVICH	член комиссии	Сирдарё тумани ирригация бўлими

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 11.08.2022 года № лота 132286.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 100.00 / Весовой коэф. ценовой части: .00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по текущему ремонту сооружений
Подробное описание	Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash va inshootlarni ta'mirlash
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	326 220 317.00
Стартовая сумма	326 220 317.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Кафолат хат

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчи объектни бажриб топшириш куни тўғрисида маълумотнома тақдим қилиши керак. Танлов иштирокчилари томонидан энг паст нарх тақдим қилинишида юқорида курсатиб ўтилган талабларнинг мавжудлиги инобатга олинади. Юқоридаги талаб бажарилмаган тақдирда паст нархда хизмат кўрсатиш иштирокчилари голиб деб топилмайди. Юқори балл тўплаган давогар танлов голиби хисобланади. Кушимча маълумот:Ижрочининг Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлигининг махсус электрон порталидаги соҳавий қурилиш-пудрат ташкilotлари рейтингда мавжудлиги ва Ишончлилиқ тоифасининг юқорилиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Mirob qurilish servis	25	316434000	25	Экспертная		
OZOD MALIKA YO'L QURILISH MCHJ	25	25	25	Экспертная		
ABROR MELERATSIYA TIZIMI	25	310000000	25	Экспертная		

Критерий №2 Солик ва банк маълумотномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчи томонидан худудий солиқ инспекциясидан тасдиқланган карзи мавжуд эмаслиги тўғрисида ҳамда банкдан карзи йўклиги тўғрисида маълумотнома (электрон тасдиқланган жорий ойига

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Mirob qurilish servis	25	316434000	20	Экспертная		
OZOD MALIKA YO'L QURILISH MCHJ	25	25	25	Экспертная		
ABROR MELERATSIYA TIZIMI	25	310000000	15	Экспертная		

Критерий №3 Бажарган ишлари тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчи ўтган икки йил давомида йул қурилиш соҳасида қилган ишлари тўғрисида маълумотнома тақдим қилиши керак ва Танлов иштирокчилари шартномани бажариш учун зарур техникавий, молиявий, моддий, кадрлар ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Mirob qurilish servis	25	316434000	24	Экспертная		
OZOD MALIKA YO'L QURILISH MCHJ	25	25	23	Экспертная		
ABROR MELERATSIYA TIZIMI	25	310000000	20	Экспертная		

Критерий №4 Банк малумотномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Обект бошланғич нархининг 30%миқдориди айланма маблағлар мавжудлиги тўғрисида банк маълумоти тасдиқланган булиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Mirob qurilish servis	25	316434000	25	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OZOD MALIKA YO'L QURILISH MCHJ	25	25	25	Экспертная		
ABROR MELERATSIYA TIZIMI	25	310000000	25	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
Mirob qurilish servis	326 220 317.00	316 434 000.00 UZS	316 434 000.00	00.00	316 434 000.00	06.08.2022 13:08:15	00.00
ABROR MELERATSIYA TIZIMI	326 220 317.00	310 000 000.00 UZS	310 000 000.00	00.00	310 000 000.00	11.08.2022 13:49:40	00.00
OZOD MALIKA YO'L QURILISH MCHJ	326 220 317.00	325 000 000.00 UZS	325 000 000.00	00.00	325 000 000.00	11.08.2022 13:03:59	00.00

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
Mirob qurilish servis	94	0	94
ABROR MELERATSIYA TIZIMI	85	0	85
OZOD MALIKA YO'L QURILISH MCHJ	98	0	98

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 132286 от 11.08.2022 года на приобретение Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tozalash va inshootlarni ta'mirlash определила победителем:

OZOD MALIKA YO'L QURILISH MCHJ
303028705

и резервный исполнитель: Mirob qurilish servis (300601249)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	KUYBAKOV ULUG'BEK XASANOVICH	Согласен	
Член комиссии	JAPAROV SAVRONBEK BAXTIYOR O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	XUDAYKULOV BATIR SULTANOVICH	Согласен	
Член комиссии	ALIMOV MURODJON NORMUROT O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	ISAYEV BEKZOD BAXRIMURATOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП